

**Yo'l transport tergov qilishning nazariy masalalari**  
**Kabulov Kozimjon Turg'un o'g'li**  
**Toshkent davlat yuridik universiteti**  
**“Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti” soha**  
**mutaxassisligi**  
**magistri**  
**kabulovkt@gmail.com**  
**Toshkent davlat yuridik universiteti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yo'l transport hodisalari sodir bo'lishiga yo'l qo'yilgan sabablar va sharoitlar, yo'l transport hodisasini sodir etish usuli, shu turdagi jinoyatlarni kamaytirish zarurligi, jinoyatni ochish jarayonida tergov yo'nalishlarini aniqlab olish hamda versiyalarni tuzishning samarali yo'llari, (metodlari), haqida atroflicha tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** yo'l transport hodisasi, jinoyat izlari, jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasi, yo'l transport hodisasini sodir etish usuli, kriminalistik tavsif, yo'l transport hodisalari mexanizmi.

### **I. Kirish**

Transport hodisalarining ko'piga haydovchilarning yo'l qoidalarini qasddan mensimasligi va tajribasizligi, piyodalarning qoidalarga amal qilmasligi ham sabab bo'lmoqda. Shu bois, bu yil barcha hududlarda “Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda” umummilliy dasturi amalga oshirilishi ta'kidlandi.

Qonunchilik palatasi va mutasaddi idoralarga yo'l harakatiga oid qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqib, tubdan takomillashtirish vazifasi qo'yildi. Chunki qo'pol qoidabuzarliklar, ularni takror sodir etish holatlari ko'paygan.

Jazo muqarrarligini ta'minlash maqsadida, bundan buyon, har bir huquqbuzarlik uchun jarima ballari tizimi joriy etilishi belgilandi. Masalan, haydovchi tezlikni oshirsa, 1 ball, qizil chiroqda o'tsa, 3 ball hisoblanadi. Agar bir yilda qoidabuzarliklar jami 12 balldan oshsa, haydovchi avtomobil boshqarish huquqidan mahrum qilinadi va qayta imtihon topshiradi.

Ma'lum qilinishicha, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida jami 10 001 ta yo'l-transport hodisalar sodir etilgan bo'lib, ular oqibatida 9230 kishi jarohat olgan. Eng achinarlisi, O'zbekistonda 2021-yilda yo'l-transport hodisalari oqibatida jami 2426

kishi halok bo'ldi. YTHlarning 4698 tasi piyodalar, 1621 tasi bolalar, 1075 tasi velosipedchilar, 84 tasi mototsiklchilar bilan sodir bo'lgan. Avariya sodir etgan haydovchilarning 268 nafari ayollar bo'lsa, 9733 nafari erkaklar.

Shuningdek, YTHlarning 20,1 foizi harakatni tashkil etishdagi muammolar, 20,1 foizi belgilangan tezlikka rioya qilmaslik, 13,8 foizi piyodalar o'tish joyi belgilanmagan joydan kesib o'tish, 9,1 foizi haydovchining tajribasizligi, 5-foizi bolalarni qarovsiz qoldirish, 1,4 foizi esa mast holda rulga o'tirish oqibatida kelib chiqqan.

Yo'l-transport hodisalarining deyarli 3626 tasi davlat ahamiyatidagi (mintaqalararo), 2099 tasi mahalliy, 1697 tasi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yo'llarda yuz bergan.

Bir yil ichida eng ko'p yo'l-transport hodisalari Farg'ona viloyatida sodir bo'lgan — tegishli davrda 1469 ta YTH qayd etilgan. Kuchli uchlikdan Toshkent viloyati (1336 ta) va Toshkent shahri (1073 ta) bormoqda. Eslatib o'tamiz, O'zbekistonda 2020-yilda yo'l-transport hodisalari oqibatida jami 1962 kishi 2019-yilda esa 2094 kishi halok bo'lgan edi<sup>1</sup>.

Vatanimizdagi rivojlanishning tub yo'nalishini va islohot jarayonlari, shu jumladan texnikadan foydalanish samaradorligi dastavval inson omili nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi va baholanishi shart .

Transport va uning keng tarqalgan avtomobil turi o'zining qulayligi va boshqa ijobiy tomonlari bilan birga, undan foydalanish qoidalarini buzish oqibatida hayotga xavf tug'dirishi va moddiy hamda ma'naviy zarar keltirishi bilan bog'lik. Lekin jahon iqtisodiyoti va madaniyati avtomobil transporti muttasil rivojlantirilishi zarur ekanligini taqozo qilmoqda. O'zbekiston mustaqillik davrida erishgan yutuqlaridan biri avtomobil chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kirdi, bir necha rusumdagi yo'lovchi va yuk tashuvchi zamonaviy avtomobillar chiqarmoqda. Xorijiy mamlakatlardan xam turli avtomobil vositalari keltirilmoqda.

YTH hamma vaqt ham jiddiy oqibatlar keltirib chiqarmaydi va jinoiy harakterda bo'lavermaydi. Ba'zan yo'l hodisalari na haydovchiga, na yo'lovchiga, na avtomobilning texnikaviy holatiga, na yo'lning sifatiga bevosita bog'lik bo'lmasligi

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2022/02/17/ozbekistonda-2021-yilda-yuz-bergan-yol-transport-hodisalari-oqibatida-necha-kishi-halok-bolgani-malum-qilindi/> internet manbaasidan olindi.

mumkin. Hodisaniyning yuz berish jarayoni dastlab noaniq va murakkab ekanligi sababli ayb kimda ekanligini tezda aniqlash juda mushkul.

Har qanday jinoyatni muvaffaqiyatli tergov qilish, birinchi navbatda, tergovchidan nafaqat jinoyat qonunini, balki uning kriminalistik mohiyatini ham anglash qobiliyatiga bog'liqdir. Jinoyatning kriminalistik mohiyatini to'g'ri belgilash, ya'ni uning kriminalistik xususiyatlarini tushunish faqat malakali tergovchiga ham ma'lum sharoitni taqozo etishi mumkin. Buning uchun tergovchi ma'lum bir jinoyat turining tipik kriminalistik muhim belgilari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, shuningdek, har bir aniq jinoyatda muhim kriminalistik ma'lumotlarini maqsadli ravishda aniqlash va uni ma'lum bir jinoyat turining tipik kriminalistik xususiyatlari bilan taqqoslash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Jinoyatlarni kriminalistik tavsiflash kriminalistika fanining muhim kategoriyasi bo'lib, u nafaqat umumiy nazariy qoidalar, balki tergov organlarining amaliy faoliyati, xususan, jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasi uchun ham muhimdir. Ilmiy adabiyotlarda ushbu kategoriya jinoyatning tipik axborot modeli sifatida ham belgilanadi.

Jinoyatlarning ayrim turlarini muvaffaqiyatli ochish va tergov qilish jinoyatlarning kriminalistik xususiyatlarining mohiyatini o'rganish va ushbu toifani kriminalistik bilimlarning mustaqil sohasiga ajratish orqali osonlashadi.

Ilmiy kriminalistik adabiyotlar bilan tanishish natijasida biz jinoyatlarning kriminalistik xususiyatlari tushunchasi so'nggi yillarda olimlar va amaliyotchilar tomonidan faol muhokama qilinayotgan kriminalistika fanining muammolaridan biri ekanligini aniqladik. Jinoyat ishlarini sudga ko'rib chiqish uchun bunday tadqiqotlarning ahamiyati katta. Yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq jinoyatlarning kriminalistik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan standart versiyalardan foydalanish ushbu jinoyatlarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Kriminalistik xususiyatlar elementlarini yaratishda maxsus bilimlarni faol jalb qilish tergov samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ayrim mualliflar jinoyatlarning kriminalistik tavsifini jinoyatlarning kriminalistik ahamiyatga molik belgilari to'g'risida muayyan tarzda buyurtma qilingan ma'lumotlar majmuyi deb tushunadilar.

M.P. Yablokovning so'zlariga ko'ra, "Kriminalistikaning tub mohiyatiga nazar soladigan bo'lsak, jinoyatning o'ziga xos xususiyati deganda jinoyatning turi, guruhi

va individual xususiyatlarining kriminalistik jihatdan ahamiyatli belgilarini tavsiflash tizimi tushunilishi kerak, uni sodir etish usuli, mexanizmi va shartlari, uning predmetining xususiyatlarida ko'rish mumkin. Jinoyatlarni muvaffaqiyatli ochish, tergov qilish va oldini olish uchun muhim bo'lgan muayyan jinoiy faoliyatning boshqa belgilariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi"<sup>2</sup>.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsiflashdam, albatta, jinoyat sodir etish usullari haqida va ushbu jinoyatni guruh bo'libmi yoki yakka tarzda sodir etganmi, sodir etgan shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi va shu kabi jinoyatlarni oldini olish to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha, A.A. Shapkinning ta'kidlashicha, "Kriminalistik tavsif voqea mexanizmi, aybdor shaxsining xususiyatlari, voqea sodir bo'lgan joydagi vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlar tizimi bo'lib, ular o'rtasidagi tabiiy aloqalarni hamda sud bosqichida vazifalarini aniq hal qilish bo'yicha versiyalarni tuzish va ularni tekshirish vositasi sifatida aks ettiradi"

Ushbu olimning fikrlari bo'yicha hodisa sodir etgan shaxs, ya'ni haydovchining shaxsiga aniqlik kiritish tergovni olib borishda to'g'ri versiyalarni qo'llash sud bosqichida adolatli hukm chiqarilishiga olib kelishi to'g'risida aytib o'tilgan.

Biz ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaymiz, jinoyatni ochish jarayonida tergov yo'nalishlarini aniqlab olishda hamda versiyalarni tuzishda va sud jarayonida voqeani yoritib berishda biz kriminalistikaga tayanamiz. Bir so'z bilan aytganda, kriminalistika tipik vaziyatlarning ideal modeli va tabiiy ravishda shakllangan daliliy axborot manbalarini hamda jinoyatlarning ayrim toifalarini tergov qilishning optimal yo'li va eng samarali vositasini aniqlashga imkon beradi.

Yo'l transport hodisalarning kriminalistik tavsifi bu jinoyat sodir etish holati va mexanizmida, uning ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlarida, shuningdek, ularning jinoiy xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladigan va bunday hodisaning o'zaro bog'liq va o'zaro shartli umumiy va individual belgilarining kombinatsiyasi belgilab beradi.

Olimlar jinoyatni sodir etish usuli emas, mexanizmi jinoyat sifatida avariyaning kriminalistik tavsiflashda yetakchi element deb hisoblaydilar. Avariya sodir etish usuli o'ziga xos xususiyatlarga ega.

<sup>2</sup> Криминалистика: учебник / отв. ред. Н.П. Яблоков. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Юристъ, 2005. – 86 с.

Shuni ta'kidlaymizki, u ko'pincha YTHning kriminalistik xususiyatlarining boshqa elementlariga, shu jumladan, jinoyat mexanizmiga nisbatan bo'ysunuvchi rol o'ynaydi. Olimlar tomonidan yo'l transport hodisalari sodir etilishiga olib keladigan omillar, holatlar va alohida bosqichlarning dinamik, vaqtinchalik va boshqa munosabatlari tizimi sifatida qaraladi, shu sababli, YTH sodir bo'lgan paytida o'zaro ta'sir qiluvchi obyektlarda izlar hosil bo'ladi.

Yo'l transport hodisalari mexanizmini bir vaqtning o'zida uch bosqichga bo'linadigan jarayon sifatida tushunish mumkin:

- ❖ transport vositasining to'siq bilan yaqinlashishi;
- ❖ to'siq bilan o'zaro ta'sir;
- ❖ ta'sirdan keyin transport vositasi va boshqa obyektlarning harakati.

Bu bosqichlarning har birini o'rganish, ularning borishi shart-sharoitlari va oqibatlarini aniqlashtirish jinoyatlarni tergov qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki shaxsning aybdorligi masalasi belgilangan.

Yo'l transport hodisasini sodir etish usuli - avtohalokatning murakkab mexanizmida transport vositasini boshqarayotgan shaxsning harakat usuli: qarama-qarshi chiziqqa chiqish, to'siqdan qochish, keskin burilish, kech tormozlash va boshqalar. Bu barcha harakatlar salbiy oqibatlarining boshlanishidan oldin sodir bo'ladigan to'qnashuvlar, baxtsiz hodisalar va boshqalar.

Ular har bir holatda turli xil munosabatlarda namoyon bo'ladigan subyektiv va obyektiv omillarning aloqasi bilan tavsiflanadi.

#### **Subyektiv omillarga quyidagilar kiradi:**

- haydovchilarning xatti-harakatlarida (masalan, transport vositasini boshqarish usulini tanlash; tezlikni noto'g'ri tanlash yoki belgilangan tezlikdan oshib ketish, kesishmalar, o'tish, quvib o'tish qoidalarini buzish va hokazo);
- transport vositalari va yo'ldan foydalanayotgan piyodalar, yo'lovchilar va boshqa shaxslarning xatti-harakatlarini (masalan, qatnov yo'li bo'ylab harakatlanish, yo'l belgilariga rioya qilmaslik, svetofor belgilari va signallarini, harakatlanayotgan transport vositasi oldida yo'lni kesib o'tish, o'tish uchun mo'ljallanmagan joylarda yo'lni kesib o'tish, xavfsizlik devorlaridan oshib o'tish, belgilanmagan joylarda yo'lovchilarni chiqishi va tushirish, yo'lda piyodalarning kutilmaganda paydo bo'lishi va boshqalar).

**Obyektiv omillar** – bu yo‘l holati, transportning texnik holati, meteorologik sharoitlar va boshqalar.

Harakat ishtirokchilari ko‘zda tutilmagan holatlarning tasodifiy tarzda sodir bo‘lishi (masalan, transport vositasining kutilmagan nosozligi) natijasida avariya sodir bo‘lishiga va boshqa texnik vaziyatlar .

Yo‘l transport hodisaning holati va mexanizmi, uning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan sabablar va sharoitlar, uning ishtirokchilari va boshqalar haqida ma'lumot manbayi ulardan qolgan iz hisoblanadi. Bu sodir etish usulini aks ettiradi. Iz naqshlari oddiy ikki jismlarning o‘zaro ta'siri mexanizmining asosi bo‘lgan harakat shakliga bog‘liq. Izlarning hosil bo‘lishi avariya turiga bog‘liq. Avariya natijasida bosim izlari, surilish, sirpanish, aylanish va h.k. hosil bo‘lishi mumkin.

Voqea sodir bo‘lgan vaziyatni (joy, vaqt va boshqa holatlarni) tavsiflovchi ma'lumotlar ham muhim kriminalistik ahamiyatga ega. Masalan, yilning vaqti(kuni) favqulodda yo‘l holatining shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. N. A. Selivanovning ma'lumotlariga ko‘ra, "Eng ko‘p avariya transport vositalarining eng qizg‘in harakati paytida ("часы пик"), shuningdek, mavjud noqulay ob-havo sharoitida (yomg‘ir, muz, tuman va boshqalar) va tunda sodir bo‘ladi"<sup>3</sup>.

Hammamizga ma'lumki, yo‘l transport hodisalari ko‘p hollarda kechki vaqtda eng qizg‘in harakat vaqtda sodir bo‘ladi, buning asosiy sabablaridab biri haydovchining kun davomida charchashi, ish vaqtidagi stress, ruhiy holati ta'siri va boshqa shunga o‘xshash holatlar natijasida kelib chiqadi.

S. P. Mitrichevning fikriga ko‘ra, "Yo‘l transport hodisalari jinoyati-bu turli xil obyektlar: transport vositalari, yo‘llar va yo‘l sharoitlari, haydovchilar, piyodalar va boshqa yo‘l foydalanuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirning murakkab va dinamik tizimidir. Ushbu obyektlarning o‘zaro ta'siri natijasida ushbu turdagi jinoyatlarga xos bo‘lgan iz namunasi shakllanadi. Ushbu izlarni tahlil qilish va o‘rganish voqea sodir bo‘lgan kriminalistik xususiyatlarining boshqa elementlarini o‘rnatishga yordam beradi"<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Селиванов Н.А. Криминалистическая характеристика преступлений, следственные ситуации в методике расследования // Социалистическая законность. – № 2. – 1977. – С. 56-58.

<sup>4</sup> Митричев С.П. Общие положения методики расследования отдельных видов преступлений // Криминалистика и судебная экспертиза. Республиканский межведомственный сборник научных и научно- методических работ. – К., 1973. – Вып. 10. – С. 27-33.

YTH ning kelib chiqishiga olib keladigan omillar haydovchi va uning transport vositalari, yo'lovchi hamda yo'l sharoiti sababli kelib chiqadi.

Yo'l holatini tavsiflovchi ma'lumotlar ham muhim kriminalistik ahamiyatga ega. "Yo'l holati-bu ko'chaning yoki yo'lning ma'lum bir qismida transport sodir bo'ladigan va statik (yo'lning texnik xususiyatlari, tunda yo'lni yoritish vositalarining mavjud emasligi, tartibga solish vositalari va boshqalar bilan tavsiflanadigan murakkab sharoitlar majmuyi.) va dinamik elementlar"<sup>5</sup>.

Tajribali haydovchi va texnik jihatdan soz avtomobil harakatida ham baxtsiz hodisalarni kelib chiqishi mumkin. Buning kelib chiqishi sababi yo'lning holatiga ham bog'liqdir, albatta, bu shaxsga bog'liq bo'lmagan holatda yo'l tufayli kelib chiqishi ham mumkin.

O'z tavsifiga ko'ra, yo'l transport hodisalari sodir bo'lishiga quyidagi holatlar sabab bo'lishi mumkin:

- oddiy (haydovchi xavfni sezish va zarar yetishining oldini olish choralarini ko'rish uchun yetarli vaqtga ega bo'lganda);
- qiyin (xavf tez sodir bo'lganda haydovchi uni baholash va to'g'ri qaror qabul qilish uchun kam vaqt bo'lganda);
- juda qiyin (paydo bo'lgan to'siqlar haydovchini oldini olish uchun favqulodda choralar ko'rishga undaydi);
- favqulodda vaziyatlarda (haydovchi, mexanika qonunlari va psixofiziologik qonunlardan kelib chiqqan holda, zararli oqibatlarining oldini olish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa).

Yo'l holatining dinamik elementlari avariylarning paydo bo'lishi va sharoit yaratishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ◆ avtomobil va piyodalarning tezligi va shiddatli harakatlanishi;
- ◆ yo'lda boshqa obyektlarning xarakatlanishi;
- ◆ yo'l harakati qatnashchilarining xatti-harakatlari;
- ◆ transport vositalarining harakat manyovrlari;
- ◆ transportni boshqarishda manyovr signallarini o'zgartirish;
- ◆ ko'rinishi va boshqalar.

<sup>5</sup> Шапкин А.А. Криминалистическая характеристика дорожно- транспортных преступлений // Социально-экономические явления и процессы. – №. 5 (051). – 2013. – С. 238-240.

Shuni ta'kidlaymizki, ushbu omillarning barchasi transport vositasini boshqarishda haydovchi tomonidan hisobga olinishi kerak.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yo'l transport hodisalarni ko'pincha haydovchilar tomonidan buzilishi kuzatilar ekan. Harakatning boshqa ishtirokchilari ushbu hodisani kamroq ishtirokchisi bo'lib qolar ekan. Bu to'g'risida Kolesnichenko aytib o'tilgan fikrlarga yuzlanamiz, "Haydovchining shaxsini o'rganib, uning yoshi, sog'lig'i, jismoniy sog'lomligi yoki xastaligi, mastlik holati, kasbiy tayyorgarlik darajasi, tajribasi, amaliy ko'nikmalarining bor yoki yo'qligi, uning haydovchilik sohasida qanchalik malakasi borligi bilan belgilanadi"<sup>6</sup>.

### **Xulosa**

Shunday qilib, transport vositalarini boshqarish ko'nikmalarining yetishmasligi haydovchining ko'pincha baxtsiz hodisa sodir etilishiga sabab bo'ladi. Muallifning so'zlariga ko'ra, "Bunday jinoyatlarning katta qismi ham spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarning ta'siri ostida sodir etilishiga olib keladi"

I.K.Zavgorodniyning fikriga ko'ra, "Jabrlanuvchining harakatlari ham yo'l-transport hodisasi mexanizmining muhim elementidir. Shunday qilib, tergov jarayonida jabrlanuvchining yoshi, sog'lig'ining holati, jismoniy va ruhiy xususiyatlari, eshitish va ko'rishda nuqsonlarning mavjudligi, mastlik holati aniqlanadi"<sup>7</sup>.

Bunday jinoyatlarni tergov qilishda yo'l harakati qoidalarini buzish va ularning oqibatlarini o'rtasida sababiy bog'liqlik aniqlab olish shart. Albatta, bu hodisaga oydinlik kiritishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Baxtsiz hodisada olgan tan jarohati tufayli uning surunkali kasallik borligi uchun jabrlanuvchida o'lim holati yuz bergan bo'lishi mumkin. Shuning uchun jabrlanuvchining o'lim sababini aniqlash juda muhim, chunki bu haydovchining harakatlariga nisbatan ta'sir qilishi mumkin.

YTHni tekshirish jarayonida ularning kriminalistik xususiyatlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni hisobga olish kerak. Uning elementlarini aniq vaziyat bilan solishtirish muayyan jinoyatning belgilari va izlarini izlash uchun zarur ilmiy-texnik vositalarni qo'llash, optimal tergov taktikasini tanlash imkonini beradi. Bu

<sup>6</sup>Колесниченко А.Н. Научные и правовые основы расследования отдельных видов преступлений: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – X., 1967. – 27 с.

<sup>7</sup>Завгородний И.К. О содержании и принципах организации расследования ДТП // Актуальные проблемы российского права. – 2007. – №1 (4). – С. 622-625.



tergovchiga tezkor-qidiruv faoliyati imkoniyatlaridan foydalangan holda, tergov harakatlarini o'tkazishning versiyalarini aniqlash va muayyan texnologiyalar va taktikalarni ishlab chiqishda yordam beradi. Aynan tergov metodologiyasi qaysi izlar-ko'rgazmalar va boshqa moddiy obyektlar, vaziyat elementlari muayyan jinoyatlarga xosligini aniqlaydi, ular bilan ishlash bo'yicha uslubiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi. Shunday qilib, YTHning hodisani tergov qilish metodologiyasida kriminalistik texnikadan foydalanish, avtomobillar va boshqa transport vositalarining izlarini aniqlash va boshqa usullari ko'rsatilgan.

### References

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: “Adolat”, 2014. – 345 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: “Adolat”, 2014. – 726
3. O'zbekiston Respublikasining “Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida” 1999 yil 19 avgust Qonuni // O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining axborotnomasi, 1999, 9-son, 215-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 11 dekabrda 472-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo'l harakati qoidalari”.
5. BMT “Yo'l belgilari va signallari to'g'risida” Konvensiyasi, Vena-1968, Nyu- York-1996.
6. Kriminalistika. Darslik. //Mualliflar jamoasi – Toshkent: TDYU, 2018. – 533 b.
7. G'.A. Abdumajidov, A.Y.Norboev T.Aripov Kriminalistika. Darslik II-jild.TDYI nashriyoti.2008.;